



KAFIL
SUG'URTA

Sug'urta kompaniyasi
Страховая компания

**TASHUVCHINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY
SUG'URTA QILISHUCHUN OMMAVIY OFERTA**

“OSGOP”

Kod:56



KAFIL
SUG'URTA

Toshkent sh. 2022 y.

TASDIQLAYMAN
«KAFIL SUG'URTA» AJ
Boshqaruv raisi

F.A. Artikov

2022 yil «__» ____dagi

____-sonli buyruqqa 2-ilova

TASHUVCHINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG'URTA QILISHUCHUN OMMAVIY OFERTA

Ushbu Ommaviy oferta (bundan buyon matnda Oferta deb yuritiladi) “KAFIL-SUG'URTA” AJ ning (bundan buyon matnda Sug'urtalovchi deb yuritiladi) noma'lum doiradagi yuridik shaxslarga (bundan buyon Sug'urta qildiruvchi deb yuritiladi) yo'llangan quyidagi sug'urta shartlarida sug'urta shartnomasini Sug'urtalovchining axborot tizimlari vositasida tuzish taklifi bo'lib hisoblanadi. Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi shartnoma taraflaridir.

Mazkur Oferta shartlarining qabul qilinishi va shartlashilgan sug'urta mukofotining to'lanishi uning shartlarini akseptlash hamda Sug'urta qildiruvchining Sug'urta shartnomasini tuzishga roziligi bo'lib hisoblanadi.

Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanligi fakti tasdiqlanganidan keyin unga sug'urta polisi beriladi va Sug'urta shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq Oferta shartlarining qabul qilinishi mazkur Oferta shartlarini so'zsiz qabul qilingan deb hisoblanadi va u bilan quyidagilarga rozilik ifodalanadi:

-mazkur Oferta shartlari, jumladan unda bayon qilingan sug'urta shartlariga rozilik;

-arizani to'ldirishda ko'rsatilgan shaxsga doir ma'lumotlar bilan sug'urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirilmagan tarzda ishlov berish yuli orqali 5 yil muddatga ishlashga, jumladan ularni yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish, ulardan foydalanish, ularni egasini ko'rsatmaslik, bloklash, yo'q qilishga (yo'q qilish haqida xabar qilmagan holda), shuningdek sug'urta shartnomasini bajarish, ichki hujjat aylanmasini ta'minlash maqsadida uchinchi shaxslarga ularni berishga rozilik.

Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining internet resursi vositasida Sug'urta shartnomasini tuzish natijasida o'z huquqi va muomalaga layoqatligini tasdiqlaydi, shuningdek o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar yuzasidan javobgarlikni anglaydi.

Sug'urtalovchining internet resursida onlayn tarzda Sug'urta shartnomasini tuzish uchun Sug'urta qildiruvchidan uning elektron pochta manzili va telefon raqami, davlat ro'xatidan o'tganligini tasdiqlovchi guvohnomasi, yo'lovchi tashish uchun berilgan ruxsatnoma (litsenziya) va rekvizitlari talab qilinadi.

Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchining internet resursida Sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur va muhim bo'lgan barcha ma'lumotlarni kiritilishi Sug'urta uchun ariza bo'lib hisoblanadi.

Sug'urtalovchi «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 26-moddasi talablariga muvofiq Sug'urta qildiruvchiga doir ma'lumotlari saqlanishini va oshkor qilinmasligini ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

«Oferta», «Sug'urta shartnomasi» va «Sug'urta polisi» havolalari bundan buyon matnda mazkur elektron hujjatga nisbatan bir xil ahamiyatga ega bo'ladi.

1. Umumiy shartlar

1.1. Sug'urtalovchi ushbu ofertaga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil «15» sentyabrdagi 266-son qarori bilan tasdiqlangan Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalariga muvofiq sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda jabrlanuvchiga yoki naf oluvchiga yoxud Tashuvchiga ushbu ofertaning amal qilishi davrida yo'lovchilarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash majburiyatini oladi.

2. Ishlatiladigan asosiy atamalar va ularning ta'rifi:**2.1. Sug'urtalovchi**

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Litsenziyasi asosida sug'urta faoliyatini amalga oshiradigan “KAFIL-SUG'URTA” AJ

2.2. Sug'urta qildiruvchi

Sug'urtalovchi bilan Oferta shartlarida Sug'urta qilish shartnomasini tuzgan O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tgan yo'lovchi tashish bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

2.3. Qonuniy asosi

O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 26 maydagi, O'RQ-386-sonli "Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qonuni, hamda O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 15 sentyabrdagi, 266-sonli «Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida qarori.

2.4. Sug'urta ob'ekti

yo'lovchining hayoti, yo'lovchining sog'lig'i, yo'lovchining mol-mulki (bagaj va yo'lovchining o'zi bilan birga tashilayotgan qo'l yuki) bilan bog'liq mulkiy manfaatlar sug'urta ob'ekti hisoblanadi.

2.5. Sug'urta hodisasi

Ofertaning amal qilish davrida yo'lovchilarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga yetkazilgan zarar oqibatida tashuvchining javobgarligi yuzaga kelishi.

2.6. Nazorat qiluvchi organ

Havo transportida - O'zbekiston Respublikasi Parvozlar xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi;
Temir yo'l transportida – O'zbekiston Respublikasi Temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi;
Daryo, avtomobil va shahar yo'lovchilar transportida – O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi.

3. Shartnomaning kuchga kirishi va amal qilish muddati

3.1. Ushbu oferata sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urtalovchining hisob raqamiga sug'urta mukofoti kelib tushgan kundan kuchga kiradi va bir yil mobaynida amal qiladi.

Sug'urtalovchining majburiyatlari tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta davrining boshlang'ich sanasidagi soat 00.00 daqiqadan, lekin sug'urta mukofoti Sug'urtalovchining hisob raqamiga tushgan kundan keyingi kundan oldin bo'lmagan sanadan boshlab kuchga kiradi va tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta davrining oxirgi sanasidagi soat 24.00 daqiqada tugaydi.

3.2. Sug'urta mukofoti Tashuvchi tomonidan Sug'urtalovchining hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan to'lanadi. Pul mablag'larining Sug'urtalovchining hisob raqamiga tushgan sanasi ushbu shartnoma bo'yicha sug'urta mukofoti to'langan sana hisoblanadi.

4. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

4.1. Tashuvchi quyidagi huquqlarga ega:

Sug'urtalovchidan ushbu oferta shartlarini tushuntirib berishni talab qilish;

Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori yuzasidan shikoyat qilish. Tashuvchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.2. Tashuvchi: ushbu oferta bo'yicha sug'urta mukofotini qonun hujjatlarida belgilangan shartlar asosida va tartibda to'lashi;

Tashuvchining transport vositalarini boshqaruvchi shaxslarni ushbu shartnoma shartlari bilan tanishtirishi, shu jumladan, mazkur shartnoma bo'yicha taraflarning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi;

tashish kunida amalda bo'lgan tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisining o'zi tasdiqlagan nusxasini o'zi foydalanayotgan barcha transport vositalariga va (yoki) o'zining rasmiy veb-saytiga joylashtirishi;

jabrlanuvchi yoki naf oluvchi yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi talabni o'z ichiga olgan talabnoma bilan murojaat etgan paytdan e'tiboran besh ish kunidan kechiktirmay Sug'urtalovchini tashish chog'idagi hodisa haqida yozma shaklda xabardor qilishi;

agar sug'urta tovonini jabrlanuvchi yoki naf oluvchi tomonidan hujjatlarni qalbakilashtirish yoki boshqacha tarzda aldash oqibatida asossiz ravishda ortiqcha to'langan bo'lsa, bu haqda Sug'urtalovchiga ma'lum qilishi va ortiqcha to'langan mablag'larni sug'urtalovchiga qaytarish yuzasidan zarur choralarni ko'rish shart. Tashuvchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham oladi.

4.3. Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

jabrlanuvchining yoki naf oluvchining talabnomasini Tashuvchi tomonidan ko'rib chiqishda ishtirok etish, zarur hollarda esa tegishli ekspertlarni jalb etish;

sug'urta hodisalarini yuzaga kelishining oldini olish bo'yicha tavsiyalar berish;

Tashuvchiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil «15» sentyabrdagi 266-son qarori bilan tasdiqlangan Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalarining 55-bandida belgilangan hollarda regress talabi qo'yish. Sug'urtalovchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.4. Sug'urtalovchi: ushbu oferta shartlari bilan Tashuvchini tanishtirishi, shu jumladan, uning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi; o'z faoliyatini amalga oshirish natijasida olingan Tashuvchi va jabrlanuvchi yoki naf oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi shart.

Sug'urtalovchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham oladi.

5. Taraflarning javobgarligi

5.1. Taraflar ushbu oferta bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilingan majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

6. Fors-major holatlari

6.1. Taraflar fors-major holatlari amal qilgan davrda tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish ofertasi bo'yicha o'z majburiyatlarining qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun javob bermaydilar.

Fors-major holatlariga quyidagilar kiradi: tabiiy hodisalar (zilzila, ko'chki, dovul, qurg'oqchilik va sug'urta shartnomasida sanab o'tilmagan boshqa tabiiy hodisalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (harbiy harakatlar, ish tashlashlar, qamallar, davlat tashkilotlarining hamda davlatlar o'rtasidagi cheklovchi va taqiqlovchi choralar, shuningdek Hukumat qarorlari va boshqalar) oqibatida kelib chiqqan favqulodda, ushbu sharoitlarda bartaraf etib bo'lmaydigan va oldindan kutilmagan vaziyatlar, agar ushbu vaziyatlar tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasini bajarishga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa.

Fors-major holatlari yuzaga kelganda va to'xtaganda taraflar yozma shaklda bir-birini xabardor qiladilar.

Fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda majburiyatlarni bajarish muddatini taraflar fors-major holatlari mavjud bo'ladigan vaqtga mutanosib tarzda kechiktiradilar.

7. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Ushbu ofertadan kelib chiqadigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

8. Yakunlovchi qoida

8.1. Ushbu ofertani o'zgartirish, bekor qilish va muddatidan oldin to'xtatish tartibi, ushbu shartnoma bo'yicha sug'urta da'volarini ko'rib chiqish tartibi, yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash va sug'urta tovonini to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil «15» sentyabrdagi 266-son qarori bilan tasdiqlangan Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalariga muvofiq belgilanadi.

Sug'urta qildiruvchi ushbu Oferta va sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) ni imzolash orqali sug'urta xizmatining mazmun-mohiyati, uning narxi (sug'urta mukofoti), sug'urta mukofotini qaytarish shartlari, xizmatning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, sug'urta agenti (vositachi ishtiroki mavjud bo'lganda) to'g'risidagi barcha zarur ma'lumotlar va sug'urta qoidalar bilan to'liq tanishib chiqqanini hamda ularga rozi ekanini tasdiqlaydi.